

## O`ZBEKISTONDA O`ZINI-O`ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINING AHAMIYATI

***Jovbo'riyev Javohir Toshtemir o'g'li***

*SamDU Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

*e-mail: javohirjovboriyev5@gmail.com*

***O'ng'arov Fayzullo To'lqin o'g'li***

*SamDU Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

*e-mail: [ongaroyfayzullo@gmail.com](mailto:ongaroyfayzullo@gmail.com)*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlarining ahamiyati, Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari haqida bilimlar, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari haqidagi fikirlari, Nyu-York davlat universiteti professori Parviz Morvijning O'zbek mahallasi noyob hisoblanadi, chunki u alohida shaxslar, oilalar, jamoalar va xalqlarni jamiyatga birlashtiradi. Mahalla alohida inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in, ular birdamligining vositasidir. Degan fikirlariga izohlar berib o'tilgan. Yana mamlakatimizda mahalla tizimi haqida, davlatning rivojlanishi uchun mahallalarning o`rni haqida ma'lumotlar berilgan.

***Kalit so'zlar:*** Davlat, fuqaro, mahalla, rivojlanish, o`zini o`zi boshqarish, huquqiy organlar, tarixiy tajriba, oilalar, individual, shaxslar.

### THE SIGNIFICANCE OF THE ACTIVITY OF SELF- GOVERNMENT BODIES IN UZBEKISTAN.

***Abstract:*** In this article, the importance of citizens' self-governance bodies, knowledge about citizens' self-governance bodies, the views of the President of our country Sh. Mirziyoyev on citizens' self-governance bodies, professor of New York State University Parviz Morvij's Uzbek neighborhood is unique because it unites individuals, families, communities and peoples into a community. A neighborhood is a link between an individual person, society and

*the state, a means of their unity. Comments have been made on his thoughts. Information about the neighborhood system in our country and the role of neighborhoods for the development of the country was given.*

**Key words:** *State, citizen, neighborhood, development, self-management, legal bodies, historical experience, families, individual, persons.*

### **ЗНАЧЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ САМОУПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.**

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются значение органов самоуправления граждан, знания об органах самоуправления граждан, взгляды Президента нашей страны Ш. Мирзиёева на органы самоуправления граждан, профессора Нью-Йоркского государственного университета. Узбекский район Парвиза Морвия уникален, потому что он объединяет отдельных людей, семьи, общины и народы в сообщество. Соседство – это связующее звено между отдельным человеком, обществом и государством, средство их единения. Его мысли были прокомментированы. Была дана информация о системе соседства в нашей стране и роли кварталов в развитии страны.*

**Ключевые слова:** *Государство, гражданин, соседство, развитие, самоуправление, юридические лица, исторический опыт, семья, личность, индивидуумы.*

Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari - fuqarolarning xalq hokimiyatini bevosita amalga oshirishi, davlat va jamiyat ishlarida toʻgʻridan - toʻgʻri ishtirok etishi vositalaridan biri. Asosiy vazifasi fuqarolarni mahalliy ahamiyatga bogʻliq masalalarni hal qilishda mustaqil faoliyat olib borishini taʼminlashdir. Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari haqida juda koʻp profissir olimlar davlat raxbarlari oʻz fikrlarini bildirganlar jumladan bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev taʼkidlaganidek, —Maʼlumki, dunyoda noyob, oʻxshashi yoʻq mahalla tizimi mustaqillik yillarida aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylandi[1] Rossiya olimlarining fikricha, mahalliy yoki munitsipal oʻzini oʻzi boshqarish organlari - bu mahalliy ishlarni maxsus

saylanadigan organlar tomonidan boshqarish tizimi bo'lib, ular ma'lum bir davlatning ma'muriy-hududiy birligida yashovchi aholining manfaatlarini ifodalaydi[2] Haqiqatdan ham fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari maxsus saylangan xodimlar tomonidan fuqarolarga yordam ko'rsatiladi. Nyu-York davlat universiteti professori Parviz Morvij —O'zbek mahallasi noyob hisoblanadi, chunki u alohida shaxslar, oilalar, jamoalar va xalqlarni jamiyatga birlashtiradi. Mahalla alohida inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in, ular birdamligining vositasidir. An'analarga asoslangan demokratiyaning ideal tushunchasi ham aynan shundan iboratdir[3] Professor Parviz Morvijning bu fikriga to'xtaladigan bo'lsak, aynan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari mahalladagi fuqarolar bilan turli tartibda ish olib borishadi. Misol uchun alohida shaxslar bilan individual ish olib boorish, mahalladagi fuqarolar bilan jamoa bo'lib ish olib boorish, mahalladagi oilalar bilan ishlagan holda mahalladagi fuqarolarning hayotini yaxsgilaydi va ularni jamiyat bilan birlashtiradi, ya'ni hayotini yanada yaxshilashga ko'maklashadi.

Osiyo mintaqasi va musulmon sharqidagi demokratik qadriyatlar va o'zgarishlarning rivojlanish tajribasi o'ziga xos xususiyatlarga va o'ziga xos an'analarga ega. Sharqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zaminida shakllanadi. «Bizning mamlakatimizda, – deb ko'rsatgan edi O'zbekiston Respublikasi birinchi prizidenti I.A.Karimov, – demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilishi, qonunga itoat etishi kabi fazilatlarga mos ravishda rivojlanishi zarur. Axloqiy, ma'naviy qadriyatlar siyosiy munosabatlarda ham ustunlik kasb etishi darkor.» Bunday qadriyatlar respublikamiz sharoitida avvalo aholi zich yashaydigan mahallalarda shakllanadi. Shuning uchun respublikamizda mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy hayotda, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda mahallalar rolini oshirishga katta e'tibor berildi[4]

O'zbekiston Respublikasi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari yaqqol misol qilib mahalla fuqorolar yig'ini misol bo'la olada.Bugungi kunda dunyo jamiyatida ko'plab muamolar yuzaga kelmoqda xususan ishsizlik yoki

kadrlar, yoshlar muamosi eng dolzab muamolardan hisoblanadi. Bu borada fuqorolarni o'zini o'zi boshqarish organlari muxim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning rivojlanishi, uning ijtimoiylashuvi va fuqarolik kamolotiga erishuviga ham jamiyatdagi tarbiyaviy ishlar xizmat qiladi. Bu erda jiddiy ta'lim imkoniyatlariga ega bo'lgan mahallaning o'rni juda katta. Mahalla o'zini o'zi boshqarish tamoyillari asosida yashaydi, uning hayoti asosan tarixan shakllangan urf-odatlar va an'analar bilan tartibga solinadi. Qaysidir ma'noda, mahalla katta oilaga o'xshaydi va shuning uchun ko'pincha har bir oilada nizolar kelib chiqishi mumkin, raqobat, o'zaro tushunmovchilik, qarshilik va hokazolar paydo bo'lishi mumkin. Ammo, agar bu ikkilamchi, tasodifiy onlarning barchasi bartaraf etilsa, shunla mahallalar haqiqiy demokratiya, adolat, insoniy minnatdorlik va o'zaro yordam bilan ajralib turadi. Bularning barchasi yoshlar ongi va qalbida chuqur iz qoldiradi. Uning mahalladagi tarbiyasi nomiga, betartib va xo'ja ko'rsinga olib borilmaydi. Shu sababli demokratik erkinliklarni taminlash va ularni muhofaza qilishda mahallani o'rni juda muhim.

Darhaqiqat, mahalla – O'rta Osiyoda shaharlar ichidagi hududiy birlik bo'lib, u bizga o'tmishdan meros bo'lib qolgan. Arablar istilosi va islom dini qabul qilinganidan ancha ilgari paydo bo'lgan mahalla cheklangan hududda istiqomat qiluvchi odamlar birlashmasi bo'lib, unda odamlar faqat qo'shnichilik rishtalari bilan emas, balki yuzlab yillar davomida yaratilgan ichki tartib-qoida, ma'naviy-axloqiy normalar, urf-odatlar va an'analar bilan belgilangan. Shuning uchun ham undan minglab kishilarni faol ijtimoiy hayotga jalb etishning samarali vositasi sifatida foydalanish lozim

Muhokama va Natija Xulosa qilib aytdigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari yaqqol misol qilib mahalla fuqorolar yig'ini misol bo'la oladi. Bugungi kunda dunyo jamiyatida ko'plab muamolar yuzaga kelmoqda xususan ishsizlik yoki kadrlar, yoshlar muamosi eng dolzab muamolardan hisoblanadi. Bu borada fuqorolarni o'zini o'zi boshqarish organlari muxim ahamiyat kasb etadi. Muhokama va Natija Xulosa qilib aytdigan bolsak O'zbekiston Respublikasi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari yaqqol

misol qilib mahalla fuqorolar yig'ini misol bo'la olada. Bugungi kunda dunyo jamiyatida ko'plab muamolar yuzaga kelmoqda xususan ishsizlik yoki kadrlar, yoshlar muamosi eng dolzab muamolardan hisoblanadi. Bu borada fuqorolarni o'zini o'zi boshqarish organlari muxim ahamiyat kasb etadi. Davlat o'z vazifalarini bajarishda hokimiyatni kuchaytirish hisobiga emas, aksincha demokratik omillarni kengaytirish, keng xalq ommasini boshqaruvga jalb etish yo'li bilan amalga oshirishi lozim. Buning uchun jamiyatda keng miqyosli demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, Konstitutsiyada ko'rsatilganidek, jamiyat hayotining barcha sohalarida fuqarolar haq-huquqlarini kengaytirish, jamiyatning har bir a'zosi ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ta'minlash, jamiyatda siyosiy va mafkuraviy xilmaxillikka erishish asosida davlat monopoliyasini yo'qotish kerak. Boshqacha qilib aytganda, davlat endi ko'proq fuqarolar haq-huquqini kafolatlaydigan mexanizmga aylanishi kerak.

Shunday qilib, mahalla fuqarolik jamiyatining yangi tipidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida uning fazilatlarini jonlantirish va tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Mahalla siyosiy tizimning emas, balki fuqarolik o'zini o'zi boshqarishning instituti emasligi, siyosiy tizimda ishtirok etmasligi, balki u bilan o'zaro munosabatda bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Oila – muqaddas" degan azaliy va ezgu g'oya qadrsizlanib, ming yillik milliy qadriyatlarimiz zavol topar ekan, bu kabi og'riqli holatlarni kamaytirib bo'lmaydi. Buning uchun mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqishi kerak. Chunki faollar, ko'pni ko'rgan oqsoqollar, tajribali nuroniylarimiz, agar istasa, jamoatchilik bilan birgalikda har qanday muammoni hal qilishga, xato qilgan yoshlarni to'g'ri yo'lga solishga qodir»[5]

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoyev Sh. Demokratik islohotlarning izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot rejasini yaratish barqaror taraqqiyot kafolatidir // O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning O'zLiDePning VIII syezdidagi ma'ruzasi, 19.10.2016 yil

2. Mahalla institutining Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi taqdimoti // —Xalq so‘zill gazetasi, 2014 yil 13 iyun. // <http://xs.uz/index.php/homepage/khorizhda/item/1386>.
3. Баглай М.В., Лейбо Ю.И., Энтина Л.М. Конституционное право зарубежных стран. 3-е изд., перераб. и доп. – Москва: Норма, 2012. – Б. 385.
4. Karimov I. A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - T.: "O‘zbekiston", 1996
5. O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY BOSHQARUV VA FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH INSTITUTLARINI DEMOKRATLASHTIRISH  
Шерниязова Г.У. Каракалпакский Государственный Университет имени Бердаха DOI: 10.24411/2520-6990-2020-11867